



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 322 sahifa,
3-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Use of Innovative Pedagogical Technologies in the Development of Critical Thinking	16
<i>Gulnar Atakhanova Orinbaevna</i>	
Current Aspects of Designing and Implementing Extracurricular Educational Activities at the Primary General Education Level.....	20
<i>Amankosova Dinara Gabitovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari....	24
<i>Axmadaliyeva Moxlaroy To'xtapolatovna</i>	
Pedagogical Model and Stages of Teaching Subjects Through a Project-Based Approach	28
<i>Bannayev Qosimjon</i>	
Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati	31
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Motor alaliyaning nonutqiy simptomatikasi	34
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Talabalar etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari	38
<i>Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li</i>	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik savodxonligini robototexnika elementlari asosida rivojlantirish.....	41
<i>Jabborova Umida</i>	
Fizika fanini mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida o'qitishda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	45
<i>Xayrullayev Asliddin Isatullayevich</i>	
Talaba tomonidan mutaxassislik tilini o'zlashtirishda monologik nutqni o'rgatishning samarali usullari masalasi haqida.....	51
<i>Karimov N. M.</i>	
Zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashda kasbiy motiv va motivatsiyaning o'rni	54
<i>Melikova Elnora Shuxratovna</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda pragmatik kompetensiyaning roli.....	58
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
O'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	62
<i>Nishonova Dilafuz</i>	
Computer-Based Formative Assessment: Advantages and Challenges in Teaching English to High School Students	66
<i>Obidjonova Shokhista Bakhtiyorovna</i>	
Metata'lim texnologiyalari asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.....	70
<i>O'rolboyeva Durdona Sayfiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi darslarning an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligini qiyosiy tahlil qilish.....	73
<i>Rasulev Bobirjan Atxamovich</i>	
Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari	78
<i>Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna</i>	
Innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning ilmiy-pedagogik asoslari.....	84
<i>Soliyev Eliyor Ravshan o'g'li</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idrokini o'yinlar yordamida rivojlantirishning samarali usullari	88
<i>Xalilova Shahnoza</i>	
Zamonaviy ta'limda kommunikativ kompetensiyaning o'rni va ahamiyati.....	92
<i>Yaqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi</i>	
Soliq yuki – mamlakat soliq soliq tizimining asosiy mezonidir	97
<i>Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari	101
<i>Ibodova Sarvinoz Sayfilloyevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida hospital pedagogika fanini o'qitishning dolzarb masalalari va uning uslubiy ta'minoti	106
<i>Inogamova Dilfuza Rahmatullaevna</i>	



Chizma geometriya va kompyuter grafikasi: an'anaviy fan va zamonaviy texnologiyaning uyg'unlashuvi .	111
<i>Raximov A. M., Tairova N. S., Sabirova D. U., Xasanova S. T., Tashpulatov R. X.</i>	
Геймификация в обучении английскому языку на начальном этапе обучения	114
<i>Курбанова Назира Низомиддиновна</i>	
Talabalarda tanqidiy va evristik fikrlashni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni	117
<i>Adjdiyev Nayrullo Nazrulloevich</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish metodikasi.....	122
<i>Amirullayeva Barno Abdulhaqovna</i>	
Kimyo o'qitishda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning tajriba-sinov natijalari.....	126
<i>Artiqov Maqsud Bahodirovich, Babanazarova Ayzada Omirbaevna</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilingvist sifatida shakllantirishda til o'rganish ko'nikmalari va kompetentsiyalarining rivojlanishi	131
<i>Axmadjonova Gulira'no Muxtorjon qizi</i>	
Talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda kooperativ ta'limning metodik yondashuvlari.....	135
<i>Botiraliyeva Gulobar Mahamadismoil qizi</i>	
Talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning pedagogik va metodik asoslari	139
<i>Dilbarjonov Avazbek Ravshanbek o'g'li</i>	
Teacher-Centered and Child-Centered Methods in Early Childhood Education: Insights From Finland and Uzbekistan	143
<i>Djaparova Gulnoza</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati"ni tashkil etish	150
<i>Do'stov Davron Zulhaydarovich</i>	
Theoretical, Methodological, and Practical Factors of Differentiated Education	155
<i>Ergash Shonazarovich Khasanov</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda kognitiv yondoshuv	160
<i>Gulbahor Xamidova</i>	
Mustaqil ta'lim – mustahkam bilim.....	164
<i>Halima Shukurova Sunatullayevna</i>	
Integrating Google Classroom and Project-Based Learning for Enhanced Synchronous and Asynchronous Education.....	168
<i>Inomkhojaeva Shodiyakhon Abdukodirkhoja qizi</i>	
O'quvchilarning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	174
<i>Mamadaliyev Axadjon G'aniboyevich</i>	
Hududiy rivojlanishda innovatsion yondashuvlarni strategik boshqaruvga integratsiya qilish yo'llari.....	177
<i>Mo'minov Fazliddin Xusniddin o'g'li</i>	
O'rta yoshdagi ayollarda harakat faoliyatini rivojlantirishda milliy o'yinlarning pedagogik ahamiyati	184
<i>Mustafoev Sherali</i>	
Pedagogical and Psychological Foundations of Developing Higher-Order Thinking Skills in Students.....	188
<i>Nasimova Zarina Isomiddin kizi</i>	
Pedagogik ijodkorlikning kasbiy professionallikda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	193
<i>Numonova Dildor Umurzoqovna</i>	
Ko'zi oqiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	196
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari.....	200
<i>Qilichova Marxabo Xudayqulovna</i>	
The Transformation of Existential Thought in British Literature: Iris Murdoch's Philosophical Humanism and the Reinterpretation of Freedom	204
<i>Rahmonqulova Zarnigor Nasimjon qizi</i>	
Sportchilarning elektron platformalardan foydalanishning metodik tahlili	209
<i>Saydullayev Zafar Erkinovich</i>	
Adabiy ta'limda estetik tarbiya	216
<i>Sharipov Elmurod Sa'dulla o'g'li</i>	
O'qituvchi-trenerning ko'p qirrali kasbiy-pedagogik funksiyalari	220
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Uzluksiz kasbiy rivojlanishda art-pedagogikaning o'qituvchilar hissiy farovonligiga ta'siri	223
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	

Raqamlashtirish muhitida umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish	226
<i>Xamidova Komila Maxmudovna</i>	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	231
<i>Yo'ichiyev Shaxriyor Xusanovich, O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi</i>	
Совершенствование профессиональных компетенций будущих инженеров на основе интегративного подхода	235
<i>Умарова Гулчехра Абитовна</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy qobiliyatining psixologik xususiyatlari	238
<i>Alanazarova Sholpan Artikbaevna, Artiqbaeva Miyassar Jumanazarovna</i>	
Biologiya ta'limida innovatsion metodlarni joriy etishda ta'lim menejmentining roli.....	241
<i>Allayorova Maloxat Normaxmat qizi</i>	
Integrating Innovative Technologies for the Enhancement of Speech and Communication Skills Among Learners With Intellectual Disabilities in Uzbekistan: Pedagogical Approaches and Developmental Outcomes	244
<i>Donisheva Gulruy Akhrorkulovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorlash.....	247
<i>Doniyarov Mavlonbek Arabovich</i>	
Kimyoviy birikmalarda bog'lar sonini hisoblashning yangi matematik usullari.....	252
<i>Ergashev Vahob Ergashevich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	257
<i>G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi</i>	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida steam fanlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning metodik asoslari	261
<i>Jamolova Sitara Muzaffar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	264
<i>Mamadiyurov Jamol</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar.....	268
<i>Mamayusupova Nafisa Abdulatifovna</i>	
Para yengil atletikachilarda nayza uloqtirish texnikasini takomillashtirish uslubiyati	271
<i>Qiyomova Shohsanam Yarash qizi</i>	
Difficulties in Enhancing Communicativeness of Pre-Service English Teachers.....	275
<i>Kurbonova Maftuna Fakhriddinovna, Mirzayeva Gulshan Azamatovna</i>	
Principles of Teaching Basic Foreign Language Skills (EFL)	278
<i>Samandarova Gulsara Ismatilloevna</i>	
O'quvchilarning innovatsion ta'lim muhitida tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi	282
<i>Toshpulatova Farida Radjabovna</i>	
Корпоративная культура педагогов и внутренняя стабильность ДОО	286
<i>Буранова Шохноза Абдуразаковна</i>	
Развивать личностные качества учащихся на уроках географии.....	290
<i>Шадиева Нигора Шариповна</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida oliy ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar	295
<i>Baytileuova Gulnaz Quralbay qizi</i>	
Yangi avlod pedagoglarini tayyorlash: kompetensiyalar va qadriyatlarining roli.....	298
<i>Ro'ziboyeva Ma'mura Abdunabiyevna</i>	
Astronomiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanib o'qitishning ta'lim tizimidagi o'rni	301
<i>Barakayeva Sarvinoz To'iqunovna</i>	
Alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan ishlashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.....	305
<i>Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, Namozova Sevinch Asqar qizi</i>	
Ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik qadriyatlarining ustuvorligi.....	310
<i>Jumayeva Gulnara Tursunpulatovna</i>	
Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maqsadli boshqarishga tayyorlashning nazariy asoslari	314
<i>Mahmudova Zulfiya Xomitovna</i>	
Pedagogical Methodology Improve Students' Professional Mobility in Acquisition of Specialty.....	319
<i>Khidirova Muhabbat Murodillayevna</i>	

TALABALARNI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI MAQSADLI BOSHQARISHGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

UDK: 373.2.091.3

Mahmudova Zulfiya Xomitovna

Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarda kasbiy yo'nalganlikni shakllantirish masalalari, shuningdek, ularni maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maqsadli boshqarishga tayyorlashning hozirgi holati va istiqbollari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, maqsadli boshqaruv, rahbarlik faoliyati, kasbiy yo'nalganlik, innovatsion boshqaruv, pedagogik jamoa, boshqarish funksiyalari, boshqarish usullari, boshqaruv tuzilmasi, lavozimlarni belgilash, kadrlarni tanlash.

Abstract: This article discusses the issues of developing students' professional orientation in the higher education system, as well as the current state and prospects of preparing students for the purposeful management of preschool educational organizations.

Key words: professional-pedagogical training, targeted management, leadership activity, professional orientation, innovative management, pedagogical team, management functions, management methods, management structure, designation of positions, personnel selection.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования профессиональной направленности студентов в системе высшего образования, а также текущее состояние и перспективы подготовки студентов к целенаправленному управлению дошкольными образовательными организациями.

Ключевые слова: профессионально-педагогическая подготовка, целевое управление, лидерская деятельность, профессиональная направленность, инновационное управление, педагогический коллектив, функции управления, методы управления, структура управления, назначение должностей, подбор кадров.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim vazifalardan biriga aylandi. Bu jarayonda oliy ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Shu munosabat bilan, yangi oliy ta'lim muassasalari hududlarda tashkil etilib, zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ochildi. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va o'qitish uslublarini joriy etish, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadlariga erishildi.

2017-yildagi ko'rsatkichlar asosida respublika hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy talablariga javob beradigan, yuqori malakali kadrlarni muayyan ixtisosliklar bo'yicha mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda tayyorlash zarurligi aniqlangan. Buning uchun oliy ta'lim mazmunini korxonalar va muassasalardagi texnika, texnologiyalar hamda ishlab chiqarish munosabatlariga, shuningdek, istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish va kadrlarni egallagan kasb hamda mutaxassisliklari bo'yicha ishga joylashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjudligi qayd etildi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) va DGP Research & Consulting konsalting tashkiloti bilan hamkorlikda 2017-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini chuqur tahlil qilish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida berilgan xulosalarda oliy ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik yetarli darajada ta'minlanmaganligi, talabalarning malakaviy amaliyoti ishlab chiqarish korxonalarida samarali o'tmasligi natijasida bitiruvchilarning ko'pchiligi tayyor mutaxassis sifatida ishga kirishmasdan, o'z kasbi va mutaxassisligini qayta o'rganishga majbur bo'layotgani, ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmi zamon talablari darajasida emasligi, ta'lim muassasalarida malakali pedagog va boshqaruv kadrlarining yetishmasligi, shuningdek, xorijiy ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilmaganligi kabi muammolar qayd etildi.



Yuqorida qayd etilgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish maqsadida malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir quyidagi vazifalar belgilandi:

- ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va o'quv faoliyatini bozor talablariga muvofiq tarzda tashkil etish;
- oliy ta'lim dasturlarini o'zgaruvchan mehnat bozorining talablariga yangicha yondashuv asosida, ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqish; ishlab chiqarish, ilm-fan va ta'lim o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash;
- bakalavriat bosqichidagi har bir talabaning 2-kursdan boshlab tegishli sohadagi muayyan tashkilot va korxonalarda malakaviy amaliyotini rejalashtirish hamda amaliy mashg'ulotlarni bevosita ishlab chiqarishda tashkil etish, shuningdek, bitiruvchilarni ishga joylashtirish uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev malakali boshqaruv kadrlar tayyorlash masalasining dolzarbligi haqida so'z yuritib, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun sadoqat bilan xizmat qiladigan, bilimdon va qat'iyatli rahbarlar zarurligini ta'kidlaydi. Shu bois, davlat xizmatiga yuqori intellektual salohiyatga, yangicha fikrlash qobiliyatiga, mustaqil fikrlash, vatanparvarlik va zamonaviy bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarini jalb etish zarurati kadrlar siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan.


So'nggi yillarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga mos kadrlar tayyorlash tizimini yangilash, xalqaro standartlarga javob beradigan oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida oliy ta'lim sohasini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari belgilangan. Mazkur konsepsiya mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga olib chiqish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishni maqsad qiladi. Farmonga muvofiq, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazish, ta'lim mazmunini yangilash va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shuvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish vazifalari qo'yilgan. Konsepsiyada oliy ta'lim tizimi oldida turgan bir qator muammolar – oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari o'rtasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yilmagani, ish beruvchilarning ta'lim mazmunini shakllantirishdagi roli pastligi, talabalarda tanqidiy fikrlash va mustaqil axborot izlash ko'nikmalari yetarli darajada rivojlantirilmagani – alohida qayd etilgan.

Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish tizimi yetarli rivojlanmagani, bitiruvchilar malaka darajasining mehnat bozoridagi talabga to'liq javob bermasligi ham muhim muammolar sirasiga kiradi. Bu esa mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini pasaytirib, ularning mehnat faoliyatida raqobatbardoshligini cheklaydi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalari o'quv rejaralarini kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazish, ta'lim sifatini oshirish va malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. O'zbekistonda ta'lim tizimini yangilash, pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirish hamda oliy ta'limni kengaytirish maqsadida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentning "Pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xorijiy ilg'or tajribalarni joriy etish va infratuzilmani mustahkamlash zarurati ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, pedagogik ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Bugungi kunda pedagogika ta'limi tizimida uzluksiz ta'limning muhim bo'g'ini – maktabgacha ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoniga yangi yondashuvlar joriy etilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ining, jumladan davlat, nodavlat, davlat-xususiy sherikchilik asosidagi va oilaviy MTTlarning rivojlanishi bu sohada boshqaruv kadrlarini tayyorlash uchun zamonaviy tizim yaratishni taqozo etadi. Bu esa bakalavriat bosqichida professional yo'naltirilgan, kompleks va tizimli yondashuv asosida kadrlar tayyorlash jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Buning uchun bo'lajak boshqaruvchi-menejerlarni aniqlash, ularning pedagogik, psixologik va professional tayyorgarliklarini "boshqaruvchi professiogrammasi" asosida shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bo'lajak rahbarlarni yangi ijtimoiy sharoitlarda samarali faoliyat yuritishga tayyorlash zarur. Ayniqsa, nazariy bilimlar, professionallik va tashkilotchilik ko'nikmalari ishlab chiqarish faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi boshqaruv funksiyalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim muassasalarida belgilangan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish uchun ta'lim tashkilotlarini puxta boshqarish, tarbiyachilarning pedagogik faoliyatini to'g'ri tashkil etish hamda ularni zarur pedagogik shart-sharoitlar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muvaffaqiyati, avvalo, rahbarning boshqaruv jarayonini rejalashtirish, to'g'ri qarorlar qabul qilish va ularni amalda samarali tatbiq etish ko'nikmalariga bog'liqdir. Rahbarning maqsadni aniq belgilashi, uni amalga oshirish mexanizmini puxta ishlab chiqishi, pedagogik jamoani yagona maqsad sari yo'naltirishi ta'lim sifatini oshirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishga tayyorlash jarayoni uchun oliy ta'limda didaktikaning ahamiyatli xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:



1-rasm: Talabalarni MTTlarni boshqarishga tayyorlash jarayonining didaktik xususiyatlari

Talabalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maqsadli boshqarishga tayyorlash bugungi kunda jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar sharoitida muhim masalaga aylangan. Ushbu jarayon ijtimoiy ehtiyoj sifatida quyidagi asosiy jihatlar bilan izohlanadi:

- 1) maktabgacha ta'lim jamiyat, davlat va shaxsning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi;
- 2) maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish, ta'lim sifatining kafolati sifatida katta ahamiyatga ega.
- 3) MTTlarini istiqbolli rivojlantirish rahbarlarning boshqaruv maqsadlarini to'g'ri qo'ya olish qobiliyatlarini talab etishi;
- 4) malakali kadrlar tayyorlash maktabgacha ta'limning barqaror rivojlanish kafolati ekanligi va h.k.

Haqiqatdan ham, maktabgacha ta'lim bolaning shaxs sifatida shakllanishida asosiy bosqich hisoblanadi. Shu bosqichda bolalarda dunyoqarash, ta'limga nisbatan ijobiy munosabat va tayanch ko'nikmalar shakllanadi. Uni samarali tashkil etish uchun professional rahbarlar talab etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri boshqaruv tizimining sifatiga bog'liq. Pedagogik, psixologik va menejment sohalarida yetarli tajribaga ega rahbarlar quyidagi muhim jarayonlarni amalga oshirishga qodir: strategiyalar tayyorlash, pedagogik kadrlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish. Har bir hududda bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish davlat va jamiyat uchun muhim ijtimoiy vazifadir. Bunda MTT rahbarining bilimli va tashabbuskor bo'lishi kam ta'minlangan va norasmiy aholi qatlamini ham qamrab olish, inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ayni paytda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar avlodi o'rniga zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega, maqsadli tayyorlangan yosh rahbarlarni jalb qilish ta'lim tizimining kelajagini ta'minlaydi. Shu sababli, hozirgi talabalarni maqsadli tayyorlash ta'lim tizimida kadrlar uzluksizligini, tizimli va barqaror rahbarlikni hamda innovatsiyalarga mos muhitni yaratishga yordam beradi. Boshqaruv psixologiyasi doirasida aytilishicha, jahon tajribasida oliy ta'limga ega bo'lgan menejerlarni tayyorlash yangi tayyorlov shakllaridan biri sifatida qayd etilgan. Ushbu jarayon shaxsning umumiy bilimlarini, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va boshqaruv ko'nikmalarini



optimal darajada shakllantirish bilan birga, qiziqishlar va ehtiyojlarning rivojlanishini ham ta'minlaydi. Natijada menejment sohasidagi faoliyat samaradorligi oshadi.

Menejmerlarni oliy ta'limgacha tayyorlash – yangi iqtisodiy munosabatlar, mehnat bozori, shuningdek, o'rta va oliy maktablarning o'zaro hamkorlik mexanizmi, yoshlarning ijodiy hamda yuqori darajadagi intellektual salohiyatidan maksimal foydalanish demakdir. Bakalavriat bosqichida talabalarni boshqaruv faoliyatiga yo'naltirish kasbiy faoliyatga tayyorlov bosqichida erishiladigan birlamchi professional daraja, menejerlikning anglangan tanlovi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotini maqsadli boshqarishga moslashish talabalarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi bilan birga, ta'lim tashkilotlarining istiqbolli rivojlanishi uchun strategik qarorlar qabul qilishga ham zamin yaratadi.

Zamonaviy raqobatbardosh maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari uzluksiz ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismini boshqaradi va o'z faoliyatida ta'lim tashkilotiga berilgan ijtimoiy buyurtmalarni bajarish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarishda bir qator muammolar paydo bo'lmoqda:

- rahbarlar va pedagog xodimlarning kasbiy hamda ilmiy-metodik tayyorgarligi yetarli emasligi sababli ularning maktabgacha ta'lim mazmuni va metodik ta'minoti bilan uzviy aloqasi zaiflashmoqda;
- boshqaruvda insonparvarlik va demokratik tamoyillar yetarli darajada e'tiborga olinmayapti;
- ayrim hollarda autoritar yondashuvlarga murojaat qilinmoqda;
- zamonaviy pedagogik, axborot va texnologiyalarni qo'llash uchun zarur metodik bilim va ko'nikmalar yetishmayapti;
- maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini samarali boshqarish uchun zarur uslublardan foydalanishda muammolar mavjud;
- rahbar kadrlarning kasbiy kompetensiyalari va g'oyaviy-siyosiy yetuklik darajasi pastligi, ta'lim menejmenti hamda ilg'or xorijiy tajribalar haqida bilim, ko'nikma va malakalar yetarli emasligi kuzatilmoqda;
- aksariyat rahbarlar tashkiliy ishlar bilan ortiqcha band bo'lib, bu masalaning dolzarbligini saqlab qolmoqda.

“O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da maktabgacha ta'lim tizimining joriy holati va rivojlanish muammolari batafsil tahlil qilingan. Ushbu hujjatda “maktabgacha ta'lim sohasida boshqaruv kadrlarining yetishmasligi va ularning malakasining pastligi” muhim masala sifatida ta'kidlangan. Konsepsiyada sifatli maktabgacha ta'limni ta'minlashning asosiy omillaridan biri boshqaruv kadrlarini tayyorlash darajasi va ularning professionalligi ekanligi qayd etilgan. Shu bilan birga, strategik boshqaruv, moliyaviy va HR-menejment asoslarini joriy etish zarurligi ta'kidlangan.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan tadbirlar doirasida amalga oshirilishi kerakligi ko'rsatilgan. Shu sababli, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar, rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti xususiyatlari, ilm-fan, texnika va texnologiyalardagi tez o'zgarishlar hamda axborotning globallashuv jarayonlari bo'lajak mutaxassislar uchun maktabgacha ta'lim muassasalarini samarali boshqarish kompetensiyalarini mukammal egallashni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Bizning fikrimizcha, talabalarni kredit-modul tizimi asosida maktabgacha ta'lim muassasalarini maqsadli boshqarishga tayyorlash jarayoni nazariy asoslarini quyidagi metodologik masalalarga tayangan holda ishlab chiqish zarur:

- bo'lajak boshqaruvchilarni kasbiy yo'naltirish va maktabgacha ta'lim muammolarini o'rganishning nazariy hamda metodologik asoslarini belgilash;
- bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish va kadrlar salohiyatini shakllantirish bo'yicha bo'lajak menejerlar bilan kasbiy faoliyat boshlanmaguniga qadar ishlash amaliyotining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'rganish;
- kredit-modul tizimida talabalarni maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarishga tayyorlashning asosiy metodik yo'nalishlarini aniqlash;
- talabalarni maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarishga tayyorlash tizimining asoslari, shartlari va tashkiliy-pedagogik shakllarini belgilash;
- maktabgacha ta'lim muassasalarining boshqaruvchilarini tayyorlashning uzluksiz tizimidagi oliy ta'lim samaradorligi va rolini aniqlash;
- kasbiy yo'naltirishni ta'minlash maqsadida talabalarni maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarishga tayyorlashga ko'maklashuvchi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarishga tayyorlashda kredit-modul tizimi bir qator noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu tizimning asosiy mohiyati nazariy bilimlardan amaliy ko'nikmalarga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlashga qaratilgan. O'quv jarayoni talabalar, ish beruvchilar, o'qituvchilar va ma'muriyat o'rtasida ochiq muloqot asosida, talabaga yo'naltirilgan yondashuv orqali tashkil etilishi lozim. Talabalar o'quv faoliyatining barcha turlarida – ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishni), amaliyot va mustaqil ish orqali – kutilgan natijalarga erishish uchun zarur o'quv yuklamasining bakalavriat bosqichida auditoriya soatlarining 40-50 foizini, mustaqil ish soatlarining esa 50-60 foizini tashkil etishi kerak.

Bu taqsimot talablarni hisobga olgan holda boshqaruvchilarning faoliyatiga tayyorlash jarayonida o'quv jarayonidan samarali foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligini ko'rsatadi. Kredit-modul tizimi talabalarga tanlov imkoniyatini yaratadi hamda ularning bilim olish jarayonida ketma-ketlikda xohlagan kompetensiyalarni egallashlariga sharoit tug'diradi. Bu esa shaxsiy ta'lim trayektoriyasi asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda tabaqalashgan yondashuv uchun muhim shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Jumladan, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalar o'quv rejasida belgilangan majburiy fanlarni o'zlashtirish bilan birga, tanlov fanlari orqali maktabgacha ta'lim tashkilotining muayyan yo'nalishlari (tarbiyachi, metodist, MTT direktori) bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirsoliyeva M., Hoshimova M. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish. O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016 y.
2. Mexmonov U.A. Oliy ta'limda kredit-modul tizimining joriy etilishi va imkoniyatlari. // Zamonaviy ta'lim, 2021 y., №1 (98), 4–11-betlar.
3. Musaxanova G.M. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022 y. – 45 b.
4. Mutalov S.X. Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 60 b.
5. Muxamedov Sh.M. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kredit-modul tizimidan foydalanish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022 y. – 57 b.
6. Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish. Ped. fan. bo'y. fal. dok. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 25 b.
7. Najmiddinova X.Yo. Maktabgacha yoshdagi bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Ped. fan. dok. (DSc) dissertatsiyasi. – Namangan, 2021. – 354 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.